



ZAYTUN – SHIFO VA DAROMAD MANBAYI

Sharipov Zuhridin Olim o'g'li

Termiz Davlat Unversteti talabasi

Ahmedov Alim Babaniyazovich

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Malumki bugungi kunda aholi daromadini oshir borasida davlat miqyosida keng islohatlar olib boriymoqda. Shu jumladan kichik biznes va tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilgan va insonlar tadbirkorlik qilish uchun turli sohalar va yo'llar qidirmoqda. albatta ularga kengroq malumot kerak. Maqolada biznes faoliyatini yo'lga qo'ymoqchi bo'lgan tadbirkorlar uchun Zaytun o'simligi, uni yetishtirish va qanday daromad olish haqida batafsil yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *zaytun o'simligi, shifobaxshkigi, daromad, mos iqlim, tashkiliy ishlar, sotish va foyda.*

Kirish: Zaytun atalmish mo'jizakor o'simlik. Ushbu o'simlik Qur'oni Karimning 6 ta joyida kelgan. Ma'lumki, balandligi sakkiz metrgacha bo'lgan zaytun o'simligi, o'rta yer dengizi davlatlarining barchasida parvarishlanadi. Qadimda zaytun moyi chiroqlar uchun mash'ala sifatida ishlatilgan. Zaytun moyining tiniq yonishi haqida "Nur" surasining 35-oyatida shunday ma'lumot berilgan: "... U (chiroq) na sharqiy va na g'arbiy bo'lmagan muborak zaytun daraxti (moyi) dan yoqilur. Uning moyi (musaffoligidan), garchi unga olov tegmasada, (atrofni) yoritib yuborgudekdir"... Zaytun moyi tibbiy nuqtai nazardan ham foydali daraxt hisoblanadi. Abu Ali Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" da ta'kidlashicha zaytun moyi oshqozon kasalliklari va o'n ikki barmoqli ichak kasalliklariga davo hisoblanadi. Zaytun yog'i asosiy qiymati uning boy tarkibida. Mahsulot yog'da eriydigan A, E, K vitaminlari, B guruhining ba'zi vitaminlari manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, tarkibida sog'lom yog'lar ya'ni omega-3 va omega-6 mavjud. Ularni qabul qilish metabolizmni yaxshilaydi va xolesterin blyashkalar paydo bo'lishining oldini oladi. Och qoringa





zaytun moyini iste'mol qilish quyidagi bir nechta jihatlardan yordam berishi mumkin. Demak islom tibbiyotini ham yaxshi bilishlik nihoyatda hayotimiz uchun foydalik ish ekan

U qurg'oqchilikka chidamli, ammo sovuqqa sezgir. U hatto eng kuchsiz tuproqlarda, shu jumladan toshloq tuproqlarda ham o'sishi mumkin va uning ildizlari suv uchun 6 metrga tushishi mumkin. Butun dunyoda 830 million zaytun daraxti mavjud bo'lib, qulay sharoitlarda ular ming yilgacha yashashi mumkin.

Foydalanilishi. Endi zaytun yog'ining inson salomatligi uchun foydalari haqida. Birinchidan, bu mahsulot xolesterin darajasini pasaytirish bo'yicha chempiondir. U ateroskleroz, yurak-qon tomir kasalliklari, diabet, Alsgeymer va boshqa kasalliklarning oldini oladi. Zaytun yog'ining yana bir shifobaxsh xususiyati: u yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. Ya'ni zaytun yog'i organizmdagi har qanday yallig'lanishni bartaraf etadi — anginadan tortib milk kasalliklarigacha, tromboflebit, oshqozon yarasi va boshqa infeksiyalardan himoya qiladi. Shu bois shifokorlar oshqozon yarasi uchun buyuradigan birinchi davolovchi parhez jadvalida zaytun yog'i asosiy rol o'ynaydi.

Zaytun yog'i tarkibida ayniqsa qimmatli oleyk va linoleik kislotalar, shuningdek, A, D, E, K vitaminlari mavjud. Asosan, aynan shu to'plam zaytun yog'ining shifobaxsh xususiyatlarini ta'minlaydi. Ular orasida:

- Ovqat hazm qilish jarayonini normallashtirish;
- Oshqozon-ichak trakti ko'pgina kasalliklarining oldini olish va davolash;
- Immunitet funksiyalarini oshirish;
- To'qimalar, organlarning qarish jarayonini sekinlashtirish (zaytun yog'ida mavjud bo'lgan ko'p miqdordagi antioksidantlar tufayli);
- Aqliy faoliyatni yaxshilash, xotirani mustahkamlash, asab kasalliklarining samarali oldini olish;
- Jarohat va yaralarni tezda davolashda faol ishtirok etish;
- Oshqozon shilliq qavatini yaralar paydo bo'lishidan himoya qilish;
- Suyak to'qimasini mustahkamlash;
- Saraton kasalligining oldini olish;

Ekish: Qachon ekish kerak:





Ekish uchun eng yaxshi vaqt bahorda, sovuq xavfi o'tgandan keyin. Yangi ekilgan daraxtlar birinchi qishda sovuqdan zarar ko'radi. Yozning jazirasida ekish tavsiya berilmaydi.

Qaerda ekish kerak:

To'liq quyoshli joyda (kuniga 8 yoki undan ko'p) hududlarda ekish kerak. To'g'ridan-to'g'ri suv to'plangan past joylarda ekmang. Zaytun daraxtlari botqoqlangan tuproqda tez nobut bo'ladi. Zaytun o'simligi issiqqa chidamli bo'lib quruq iqlimda ham o'ishi mumkin. Hatto tuprog'i eng unimsiz yerda hamda toshloq joyda ham o'sadi.

“Bu issiqsevar ekin, asosan, nam sohilbo‘yi mikroiqlimga ega mamlakatlarda yetishtiriladi. Biroq, bir necha yil avval ispan seleksionerlari 22 darajagacha sovuqqa chidamli bo‘lgan ‘orbikina’ nomli zaytun daraxti navini yaratdi. Bu mamlakatimiz fermerlariga ushbu tajribadan foydalanib Farg‘ona vodiysi va Surxondaryo viloyatining bir qancha hududlarida zaytun plantatsiyalarini yaratish imkonini berdi”, — deydi laboratoriya rahbari Ilyos

Qanday ekish kerak:

Zaytun o'simligini ko'chatidan ekish tavsiya etiladi. Agar urug'idan ko'paytirmoqchi bo'lsangiz u yovvoyilashib ketishi mumkin va ko'zlangan foydani olmasligingiz mumkin. Ildiz to'pi bilan bir xil diametrli va biroz sayozroq tchuqurqa qazing, shuning uchun ildiz to'pi tepasi yer sathidan biroz balandroq bo'ladi. Ekish chuqurchasiga kompost yoki organik moddalar qo'shmang. Ildizning mustahkam o'sishiga erishish uchun yosh zaytun daraxti o'z ona tuprog'iga moslashishi kerak.

Changlanish:

Aksariyat zaytun daraxtlari o'z-o'zidan unumdor bo'lib, bir daraxtda ham erkak, ham urg'ochi gullar hosil qiladi. Biroq, siz ko'pincha yaqin atrofga boshqa navli daraxt ekish orqali meva hosildorligini oshirasiz va ularning changlanishiga imkon berasiz.

Daromad:

O'zbekiston sharoitida 1 gektarga 800 ga yaqin ko'chatlar ekilsa, uch yildan so'ng deyarli **bir tonna hosil terib, 300 litr yog' olish mumkin.**





Mutaxassislarning fikricha, zaytun qattiq sovuqqa bardosh bermasligini hisobga olmaganda O'zbekiston uchun ideal hosildor daraxtdir. U tuproq va uning namlik darajasiga talabchan emas, toshloq va sho'r yerlarda ham o'sadi

Bugungi kunda zaytun mevasi va undan tayyorlangan yog'ga jahon bozorlarida talab yuqori bo'lib, asosan aholi iste'moli va dorivor maqsadlarda foydalaniladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1 gektar zaytun plantatsiyasidan 15-17 ming dollar, uni qayta ishlash orqali 45-50 ming dollar miqdorida daromad olish mumkin. O'zbekiston sharoitida zaytun yetishtirish va uni qayta ishlash agrotexnologiyasi bo'yicha aniq ilmiy asoslangan talab va tavsiyalar mavjud emas

Xulosa: Bugungi kunda aholining moliyaviy ahvolini va daromadini oshirishning eng qulay yo'li tadbirkorlik bilan shug'ullanishdir. Albatta foydali biznes bilan shug'ullanish oila uchun ham cho'ntak uchun ham foydalidir. Bugungi ekalogik sharoit shuni taqozo qiladiki ,yashil biznesni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Foydalanilmayotgan yerlardan foydalanish orqali esa intensive qishloq xo'jaligini rivojlantirish mumkin. Bu yerlarga ham oila istemoli uchun foydali ham daromad bop mahsulotlar ekish mumkin. Misol qanday ? degan savol tug'ilishi mumkin. Shunday mahsulotlardan biri Zaytundir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalq so'zi gazetasi: <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-zajtun-etishtirish-va-uni-qajta-ishlash-bojicha-aniq-ilmij-asoslar-yaratiladi>
2. <https://daryo.uz/2023/04/10/dunyodagi-eng-foydali-yog-zaytun-yogining-siz-bilmagan-shifobaxsh-xususiyatlari>
3. <https://www.garden.ersworld.com/how-to/grow-plants/how-to-grow-olives/>
4. <https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=uz&u=https://kun.uz/uz/news/2021/04/11/ozbekiston-zaytun-yetishtirishni-kopaytirmoqchi-yog-moy-sanoatida-narx-arzonlashi-uchun-bu-togri-yechimmi&prev=search&pto=aue>
5. <https://arroziy.uz/uz/news/353>
- 6 Daryo internet nashri
- 7 Sabirov Mahmudjon Imom Faxriddin ar-Roziy O'MIBY mudarrisi

